

**TALABALARNING IJODKORLIK QOBILIYATINI  
RIVOJLANTIRISHDA TASVIRIY FAOLIYATNING  
O'RNI VA AMALIY AHAMIYATI**

*Umedulloev Munirbek Mirzoqul o'g'li*

*Mallayev Behruz Qo'ldosh o'g'li*

*Termiz davlat Muhandislik va agrotexnologiyakar universiteti*


*"Bino va inshootlar qurilishi" kafedrasi o'qituvchilari*

[munirbeku93@gmail.com](mailto:munirbeku93@gmail.com)

**Kalit so'z:** ijodkorlik qobiliyati, tasviriy faoliyat, qog'oz, bo'r, bo'yoqlar, tahlil, sintez, taqqoslash umumlashtirish, idrokning sifatlari, chiziq, loy.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga rasm chizish, loydan buyumlar yasash va applikatsiya-bu tasviriy faoliyat turlari bo'lib, ularning asosiy vazifasi tevarak-atrofni obrazli aks ettirishhisoblanadi. Masalan, yozuvchining she'ri va rassomning asari. Tasviriy faoliyat maktab yoshidagi bolalarni har tomonlama tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir. Tasviriy faoliyat boshlang'ich sinf o'quvchilarini har tomonlama tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi. Tasviriy faoliyat boshlang'ich sinf o'quvchilarining ongini har tomonlama tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir. Birorta predmetni chizish yoki yasash uchun albatta u bilan oldindan tanishish yoki kuzatib chiqish, unihg shakli, katta- kichikligini, qismlarinihg joylashishi, ranggini bilish kerak bo'ladi. Bu jarayonda ko'rish, sezish, qo'l harakatlari ishtirok etmay qolmaydi. O'quvchilar boshlang'ch sinflarda predmet va hodisalarini kuzatish vako'rib chiqish jarayonida predmetni katta kichik guruhlarga bo'lib, uning shaklini o'zgartirib, rangini turli-tumanligi bilan tasvirlaydilar. Shuningdek, tasviriy faliyat jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilari turli xil material (qog'z, bo'r, bo'yoqlar va hokozalar) bilan ularning o'ziga xos xususiyatlari, ular bilan ishslash texnikasi bilan tanishadilar, bu esa


boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqlan o'sishiga sabab bo'ladi. Tasviriy faoliyat jarayonida boslang'ich sinf o'quvchilarida fikr yuritish operatsiyalari (tahlil, sintez, taqqoslash umumlashtirish) ning rivojlanishiga imkon beradi, bu, o'z navbatida, o'quvchilarning oqilona fikrlashi va o'sishiga olib keladi. Bu jarayonda o'quvchilarning nutqi rivojlanadi. Sensor tarbiyani amalga tasviriy faoliyatning ahamiyati katta. Chunki o'quvchilar o'z ishlarida bizning hayotimizda jamiyatda bo'layotgan voqeа-hodisalarни tasvirlarda aks ettiradilar, bajargan ishlaridan mamnun bo'ladilar, zavqlanadilar vahayojonlanadilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tasviriy faoliyat jarayonida irodaning sifatlari - boslangan ishni oxiriga yetkazish, oldiga maqsad qo'yib, o'shani bajarishga tomon intilish, qiyinchiliklarni yengish, o'rtoqlariga yordamlashish kabi xususiyatlar rivojlanadi va shunday tarbiyalanib boradi. Jamoa ishini yaratish jarayonida bolalarga biriga yordam, kelishib ishslash kabi sifatlar tarbiyalanadi. Jamoat ishini yaratish jarayonida o'quvchilar bir biriga yordam, kelishib ishslash kabi sifatlar tarbiyalanadi. Tasviriy faoliyat bu o'quvchilarni o'z oldiga qo'yan maqsadlarini bajarishda tinmay mehnat qilishga undovchi faliyat hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mehnat ko'nikmalarini o'stirish, tarbiyalash kerak, faqat navbatchilik orqali ba'zi bolalarga emas, balki, har bir bolaga. Tasviriy faliyat o'quvchilarga estetik tarbiya berishning asosiy vositasi hisoblanadi. Har bir predmetning katta-kichikligini, ranhgini, shaklini fazoda joylashishini ajratish, bu estetik sezgining bo'laklari hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quchilarida estetik sezgining rivojlanishi-bu rangi, retmi, proporsiyani chuqur sezish bilan bog'liqdir. Bolalar rangni, shaklni, uning xilma-xilligini sezsa yoki his etsa, u shunchalik ranglar aralashmasining xilma- xillidan zavq oladi, bahramand bo'ladi (1-rasm).



1-rasm

Boshlang'ich sinf o'quchilarida estetik sezgining rivojlanishi, ularda predmetga va uning bazi sifatlariga nisbatan estetik baho berishga o'rganadilar. Ularda Tasviriy san'at asarlarini tushunishga, ularga nisbatan his-tuyg'uni, munosabatni tarbiyalaydi tasviriy faoliyat o'quchilarda badiiy-ijodiy qobiliyatlarini o'stirishda muhim rol egallaydi. Bolaning badiiy-ijodiy o'sishi bu obrazli fikr yuritish, estetik idrok etishni va obraz yaratishda zarur bo'lган malaka, ko'nikmalarni egallah hisoblanadi. Masalan, tabiatga yoki istirohat bog'iga sayr, kuz faslida sayohat uyishtirish. O'qituchi o'quvchilarni predmet yoki tevarak-atrofnı kuzatishda paydo bo'iuvchi estetik his-tuyg'u, orqali, tevarak-atrofga, kishilar mehnatiga to'g'ri baho berish, vatanga nisbatan muhabbat kabi sifatlarni tarbiyalash mumkin. Bolalarni o'z ishini yana ham chiroyli va yaxshi bajarish, boshqalarga yoqadigan, ularni ko'rganda quvonadigan qilib yaratish bu badiiy, ahloqiy tarbiyalashning asosiy vazifasi hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quchilarida tasviriy faoliyat katta ahamiyat kasb etadi. Rasm, loy, qurish materiallari bo'yicha bilim, malakalarini egallah maktabda tasviriy faoliyat darslari va mehnat darslarini muvofaqiyatli egallashlariga asos bo'ladi. Shunday qilib boshlang'ich sinf o'quvchilari tasviriy faoliyat jarayonida olgan malakalari bolalarning maktab hayotida jamoaga kirishib izlanuvchanlik qiziquvchanlik hislatlarining paydo bo'lishiga asos bo'ladi. Tasviriy faoliyat-bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishning qismi sifatida

boshlang'ich ta'limgan olish jarayonida tasviriy faoliyat o'quvchilar bilan olib boriladigan butun ta'lim-tarbiyaviy ishning qismi hisoblanadi. O'quchilarining tasviriy faoliyatlarini rivojlantirishda asosan ish o'rnini to'g'ri tashkil etish muhim omillardan biri hisoblanib o'quvchining tog'ri jismoniy rivojlanishida ham asosiy o'rin tutadi. Bunda o'quvchining chizish molbertida to'g'ri o'tirib to'g'ri rasm ishlash qoidalarini ham unutmaslik zarur hisoblanadi. O'quvchining molbert oldida o'tirish holati hamda qalamni qanday ushslash ko'rsatilgan, demak molbert oldida egilmasdan, qalam ushlab turgan qo'lni bukmasdan tog'ri o'tirish talab qilinadi. Qo'lni bukmasdan qog'oz yuzasida naturadagi buyumlarni tasvirlash ancha qulay. iloji boricha hotirjam va yengil harakatlar bilan qo'yilmadagi buyumlardan ko'zni uzmagan holda tasvirlash zarur. Qalam, asosan, uchta barmoq bilan ushlanadi. Qalamni erkin ushlashga o'rganish kerak. Uni qattiqroq yoki bo'shiroq bosish orqali har xil chiziqlar chizish mumkin (2-rasm).



2-rasm

Tasvir chizganda qalamni qo'l barmoqlariga moslab bo'shiroq ulash lozim. Shu tariqa umumta'lim maktablarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining tasviriy faoliyatlarini rivojlantirib boriladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.S.Abdirasilov, B.Boymetov, N. Tolipov. “Tasviriy san’at”-T.:“Ilm ziyo”.2010-y.
- 2.M.Nurmatova, Sh.Hasanova. “Rasm Buyumlar yasash va tasviriy faoliyat metodikasi”.-T.: “Musiqa” nashriyoti. 2010-y.
- 3.S.F.Abdirasilov. “Tasviriy san’at va uni o’qitish metodikasi”.-T.: “Ilm Ziyo”. 2011-y.
- 4.B.N.Oripov. “Tasviriy san’at va uni o’qitish metodikasi”.-T.: “Ilm ziyo”. 2014-y.